

---

## YOZ O'TMOQDA--SOZ!



### „ GULSHAN" QO'YNIDA

2-kasb-hunar maktabi hududidagi "Gulshan-2" bolalar oromgohi soya-salqin, bezatilgan, shu kunlarda bolalarning sho'x-shodon qiyqiriqlariga to'la.

- Hozirda 7-14 yoshdagi 100 nafar o'g'il-qiz 3 guruhga bo'linib, oromgohda dam olishmoqda, - deydi bosh tarbiyachi Maftuna Hamdamova. - Bolajonlarni maroqli dam olishlari uchun 22 nafar xodim birlashtirilgan bo'lib, aqlni charhlovchi va jismoniy tayyorgarligini mustahkamlovchi turli to'garaklar ishlab turibdi. Tarbiyalanuvchilarga 4 mahal issiq ovqat beriladi. Ob-havoning issiq-sovuqligiga qarab, 2 mahal suv havzasida cho'milishadi.

Shuningdek, tuman IIB, Barkamol avlod, sport maktabi, madaniyat bo'limi tomonidan to'garak va ko'ngilochar dasturlar tashkil qilinmoqda.

Oromgohga tashrif buyurib, o'g'il-qizlar bilan suhbatimiz davomida shunga amin bo'ldikki, aksariyat yoshlar bu yerda birinchi bor bo'lishlari emas. Ularga yaratilgan sharoitlar yoqqanidan 2-3 yildan buyon takror kelayotganliklarini bildik. Xullas, yoshlarimiz yozni soz o'tkazishmoqda.

### YoZYovON TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATI

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-06-14 16:41:59